

Sankt-Peterburg - Toshkent yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha qatnov.

2020 20 Sentabr

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z Vatanlariga qaytib kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi 2020-yil 21-sentyabrda Sankt-Peterburgdan Toshkentga qo'shimcha charter qatnovga erkin sotuv ochilganini ma'lum qiladi.

Parvozlarni jadvali va aviachiptalar narxi bilan aviakompaniyaning rasmiy veb-saytida tanishishingiz mumkin:

Yo'nalish	Reys raqami	Qatnov bajariladigan kun	Uchish/ketish vaqti	
Sankt-Peterburg - Toshkent	HY 3632	21 sentabr	17:40/00:30+1	Chipta sotib olish

Mazkur qatnovga joylar chegaralanganligiga e'tibor berishingizni so'raymiz.

RF shaharlaridan O'zbekistonga aviaqatnov faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, PCR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi (qatnov jo'nashidan oldin kamida 72 soat amal qiluvchi) ma'lumotnoma qat'iy taqdim etilgan holda ruxsat beriladi. PCR ma'lumotnomasi bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniya qatnovlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, mobil ilovasi orqali, shuningdek, "Uzbekistan Airways " AJning eng yaqin sotuv ofislaridan yoki mintaqangizdagi aviakompaniya tashuvlarini sotish agentliklaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnun bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlarni tilaymiz!